

**Madatov Ilhom Yusup o‘g‘li,**

SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD

e-mail: [ilhommadatov7@gmail.com](mailto:ilhommadatov7@gmail.com)

tel: +998904693830

**Abduhakimova Zilola Zafar qizi**

SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali 2-kurs talabasi

e-mail: [zilolaabduhakimova0205@gmail.com](mailto:zilolaabduhakimova0205@gmail.com)

**tel:+998339199005**

---

## **INKLYUZIV TA‘LIMNING RESPUBLIKAMIZGA KIRIB KELISHI, DOLZARB MUAMMOLAR VA UNDAGI MAVJUD MASALALAR**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inklyuziv ta‘limning maqsad va vazifalari, yurtimizga kirib kelishi va ungacha bo‘lgan muammolar, tarbiyaga muhtoj bolalarga ta‘lim-tarbiya berish, pedagog o‘qiluvchilarning maqsad va vazifalari, inklyuziv ta‘lim bo‘yicha respublikamizda qabul qilingan qonunlar va moddalar, pedagog va resurs o‘qituvchilarning ish faoliyati, inklyuziv ta‘lim va umumta‘lim muassalarining birgalikda gi faoliyati to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** inklyuziv ta‘lim, O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risidagi qonuni“, maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar, sog‘lom bolalar, o‘qituvchi, tarbiyachilar, pedagog va resurs o‘qituvchi, korreksion ta‘lim, differensial yondashuv, integratsiya.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются цели и задачи инклюзивного образования, его проникновение в нашу страну и стоящие перед ним проблемы, обеспечение образования детей, нуждающихся в образовании, цели и задачи студентов-педагогов, законы, принятые в нашей республике об инклюзивном образовании и статьи, обсуждается работа педагогов и педагогов-ресурсников, совместная деятельность инклюзивного образования и общеобразовательных учреждений.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, «Закон об образовании» Республики Узбекистан, дети, нуждающиеся в специальном образовании, здоровые дети, педагог, воспитатели, педагог и ресурсный педагог, коррекционное образование, дифференцированный подход, интеграция.

**Annotation:** This article discusses the goals and objectives of inclusive education, its introduction into our country and the problems that preceded it, the provision of education to children in need of education, the goals and objectives of teachers, the laws and articles adopted in our republic on inclusive education, the work of teachers and resource teachers, and the joint activities of inclusive education and general education institutions.

**Keywords:** inclusive education, Law of the Republic of Uzbekistan “On Education”, children with special needs, healthy children, teacher, educators, pedagogue and resource teacher, remedial education, differential approach, integration.

---

### **Kirish**

“Inklyuziv “so‘zi inglizcha “inclusive” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, o‘zbek tiliga tarjima qilinganda “shu jumladan “yoki “birlashtiruvchi” degan ma‘noni bildiradi.

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, jismoniy, aqliy, sensor(sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etilishidir. Inklyuziv ta'lim-bu tafovutlarni inobatga olgan holda, har bir o'quvchini ta'lim jarayoniga jalb qilishni ko'zda tutuvchi yondashuvdir. Bu yondashuv o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlarini va imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Bugungi ta'lim tizimi yoshlarni, kelajagimizni munosib vorislar sifatida tayyorlashni bosh maqsad qilib olgan. Bunda sog'lom yoshlar bilan bir qatorda imkoniyati cheklangan bolalarga ham bir xilda ta'lim berishga qaratilgan inklyuziv ta'limning me'yoriy-huquqiy asoslari va mazmunini ishlab chiqish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Bu borada, 2020-yil 23-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni qabul qilinib, inklyuziv ta'lim ta'lim olish shakli sifatida belgilandi. Inklyuziv ta'lim O'zbekiston Respublikasida ilk bor ekspemint loyihalar sifatida 2005-yildan boshlangan. UNICEF xalqaro tashkiloti loyihasi doirasida 2005-2007-yilda O'zbekistonning Qoraqolpog'iston Qashqadaryo, Andijon, Namangan, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida tajriba-sinov ta'riqasida ish olib borilgan, lekin u vaqtlarda imkoniyati cheklangan bolalar to'la-to'kis aniqlanib ta'limga jalb etilmagan. Shuning uchun ishni birinchi bo'lib, yuqorida sanalgan viloyatlarda inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni aniqlash bo'lgan. Birinchi vazifani o'rganish natijasida, o'rganishga O'zbekistonda ana shu mahsus ta'lim yo'nalishi bo'yicha yetkchi mutaxassislar, tibbiyot hodimlari jalb etilib, o'sha viloyatlarda ta'limga jalb etilmay qolgan bolalarni aniqlab chiqilgan. O'rganishlar natijasida 1400ga yaqin bolalar inklyuziv ta'limga muhtoj ekanligi aniqlangan. 1400ta bolani ko'rib ularning sog'liklari haqida o'rganilib, 1-sinfga inklyuziv sinf tarzda o'tkazilishi mumkin bo'lgan bolalarni inklyuziv sinfga tayyorlash, qolganlarini esa mahsus maktab internatlarga joylashtirish ishlari amalga oshirilgan.

### **Asosiy qism**

Hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta'lim tizimi inklyuziv ta'lim deyiladi. Demak, inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli, maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar ham faqat maxsus maktablarida emas, balki sog'lom bolalar o'qiydigan umumta'lim maktablarida ham ta'lim-tarbiya olishlari mumkin ekanligini e'tirof etadi. Buning uchun esa maktab ham, o'qituvchi-tarbiyachilar ham inklyuziv ta'lim tizimiga tayyor bo'lishi, maktab darajasi, jismoniy sharoit va o'qishga imkon omillari shu ta'lim talablariga to'la javob berishi kerak.

Inklyuziv ta'limning maqsadi — alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat.

Inklyuziv ta'lim "o'z maqsadidan kelib chiqqan holda bir qator quyidagi vazifalarni hal etadi:

-inklyuziv va integratsiyalashgan ta'lim tizimi haqida ma'lumot berish;

-inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini ochib berish;

-inklyuziv ta'limni joriy etish oldida turgan muammolarni o'rganish va bu muammolarni hal etish yo'llarini izlab topish;

-inklyuziv ta'limni qo'llab -quvvatlashning asoslarini o'rganish

-inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish tamoyillarini tahlil qilish; ish tajribalarini tahlil qilish kabilarda iborat;

-jamiyatda maxsus tarbiyaga muhtoj va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar (ayrim sabablarga ko'ra maxsus tarbiyaga muhtoj bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimini yo'lga qo'yish va ularga yordam berishdan iborat.

Inklyuziv ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

-rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

-jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;

-ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

-barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

-o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

-alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash.

O'zbekistondagi inklyuziv ta'lim tadqiqotchisi, yangi Zelandiyadagi Vaykato universiteti doktoranti Galina Namning ta'kidlashicha, nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus maktab-internatlarda yoki uyda emas, balki umumiy ta'lim muassasalarida ta'lim olish ustuvor bo'lishi kerak. Inklyuziv ta'lim – bu barcha o'quvchilarning, jumladan, nogironligi va ijtimoiy-iqtisodiy holatini hisobga olgan holda, bir xil ta'lim muhitida o'qishi uchun yaratilgan imkoniyatlar va sharoitlarning yig'indisi.

Asosiy xususiyatlari:

-Har qanday o'quvchilarning qabul qilinishi: Inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan yoki bo'lmagan barcha o'quvchilarni bir xil jarayonga iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan teng ravishda jalb qiladi.

-Qobiliyatlarni rivojlantirish: O'quvchilar individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga ko'ra ta'lim oladi, shunday qilib har bir o'quvchini rivojlantirishga imkoniyat yaratiladi.

-Tarbiyaviy jihatlar: O'zaro hurmat, hamkorlik va tushunishni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar boshqalar bilan ishlash va bir-birini qabul qilish qobiliyatini o'zlashtirishadi.

-Zamonaviy pedagogika yondashuvlari: Ta'lim jarayonida kreativ metodlar, moslashtirilgan dasturlar va texnologiyalar yordamida o'quvchilarni qo'llab-quvvatlaydi.

Inklyuziv ta'limning afzalliklari:

- Ijtimoiy integratsiya
- Tushunish va empatiya rivojlanishi
- Har qanday energiya va qobiliyatni rag'batlantirish
- Ta'lim sifatini oshirish

Asosiy prinsiplari:

-Barchani qamrab olish: Ta'lim har bir o'quvchiga mos ravishda taqdim etiladi, shu jumladan nogironlar uchun maxsus sharoitlar yaratiladi.

-Farqlashgan ta'lim: O'quvchilarning turli darajadagi ehtiyojlariga mos keladigan dars rejasi ishlab chiqiladi.

-O'rganishni qo'llab-quvvatlash: Shaxsiy va guruh mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.

-O'qituvchilar tayyorgarligi: O'qituvchilar inklyuziv ta'lim bo'yicha o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishlari zarur.

Inklyuziv ta'limning imkoniyatlari:

-O'zaro aloqalarni rivojlantirish: O'quvchilar bir-birining farqlarini hurmat qilishadi va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishadi.

-Yuqori sifatli ta'lim: Ta'lim jarayonida har bir o'quvchining o'ziga xos va qobiliyatlarini inobatga olish orqali ta'lim sifati oshadi.

-Muammolarni hal etish: O'quvchilarning turli ehtiyojlari orqali muammolarni hal etishga yo'naltiriladi va ikkilamchi yechimlar

## **Xulosa**

Inklyuziv ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining muhim qismi bo'lib, u har bir o'quvchining o'z salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun kerakli sharoitlarni yaratadi. Bu yondashuv ijtimoiy tenglikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etish ustida olib borilgan tajribalardan shu narsa o'z isbotini topdiki, har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o'z vaqtida aniqlab mutaxassislariga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o'z vaqtida olib borilsa, albatta ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Ya'ni inklyuziv ta'limning samarasi yuqori darajada bo'ladi. Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilar uchun

hurmat va qadr-qimmatning ta'minlanishi, shuningdek, ta'lim olishda teng imkoniyatlar yaratishda muhim omil hisoblanadi. U nafaqat ta'lim jarayonini, balki jamiyatning ijtimoiy jihatdan birlashtirilishiga ham katta hissa qo'shadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1.O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi "Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr.O'RQ-637-son.

2. Madatov I.Yu. "Inklyuziv ta'lim " Toshkent-"BEST-PUBLISH"-2024

3.F.U.Qodirova, D.A.Po'latova. "Inklyuziv ta'lim" .Chirchiq-2022

4..Sh.N.Ibadullayevna "ta'lim klasteri asosida Inklyuziv ta'limni samaradorligini oshirishning samarali omillarini aniqlash" 2022-yil.